

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA BOLALARNI AKT VOSITALARI ORQALI INGLIZ TILIGA O'RGATISHNING YANGICHA USULLARI

*Eshonqulova Zebiniso Rashidovna*

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar GDU Akademik litseyi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan AKT vositalari, shuningdek ular vositasida didaktik o'yinlar ayrim misollar keltirilgan holda muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** didaktik, ta'limiy, integrativ, vaziyatli, jamoaviy, musobaqali, ritmli- musiqiy, badiiy, sahnalashtirilgan, tasviriy, muammoli-vaziyatli, so'zli-ijodiy o'yin turlari.

### KIRISH

Ta'lim tizimida o'z ahamiyatini yo'qotaётgan hozirgi an'anaviy ta'lim shaklini yangi pedagogik texnologilar asosidagi kompyuterli ta'lim egallamoqda. Shuning uchun butun e'tiborni hozirdan boshlab yurtimiz kelajagi bo'lgan ёsh avlodning kompyuter savodxonligini mustahkamlashga qaratish zarur. Bu borada mamlakatimizdagi ko'pgina MTTlarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanish yaxshi samara berishi isbotlanmoqda. AKT vositalaridan faqat ta'lim vositasi sifatida emas, balki tarbiyalanuvchilarning fikrlash doirasini, xotirasini, dunyoqarashini rivojlantiradigan didaktik o'yin vositasi sifatida foydalanish ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'quv mashg'ulotlarining AKT vositasida tashkil etilishi bolalarning bilim olishga qiziqishini oshiradi; berilgan materiallarni o'zlashtirishni yengillashtiradi, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi. Har qanday boladan o'z predmeti doirasida yetarli darajada kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi va undan oqilona foydalanishi talab etiladi. Bu esa axborotlashgan ta'lim jarayonida o'ziga xos didaktik qimmatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – bu ma'lumotni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan yangi ko'rinishga keltirish, axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.

Didaktik o'yinlar maktabgasha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga nihoyatda mos keladigan ta'lim berish metodidir. Ular passiv bolalarni faollashtirish, jamoa tarkibida turli vazifalarni dadil bajarishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar bolalarda o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olish, bir-biriga ko'maklashish, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi

yaqshi munosabatlarning tarkib topishiga sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlar shakllanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kushaytiradi, bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari ushun hayotiy sharoit yaratib beradi<sup>1</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Multimediali darsning bir vaqtning o'zida ham eshitish, ham ko'rish orqali bilim olishning, samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. Psixologlar ham bir vaqtning o'zida ham eshitish, ham ko'rish orqali bilim berish o'zlashtirishda yuqori samara berishini ta'kidlab kelmoqdalar. Bu borada S.S.G'ulomov, A.T Shermuhammedov va boshqa mutaxassislar quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi". AKT vositasida qator didaktik o'yinlarni tashkil etish maqsadga muvofiq, quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'limiy o'yinlar vaziyatli, musobaqali, ritmik-musiqali va badiiy turlarga bo'linadi. Jumladan, "Mushuk-mushuk" o'yini quyidagisha tashkil yetiladi. Bu o'yin ranglarni takrorlash ushun qo'llaniladi. Boshlovshi «mushuk» bolalarga orqa o'girib turadi. Bolalar: «Sat, Sat» deya shaqiradilar. Mushuk «Miyov, miyov» deb javob beradi. Bolalar: «What colour do you like?» deya so'raydilar. Mushuk: «I like yellow» deb javob beradi va shu zahoti bolalarga qarab o'giriladi. Bolalar yesa u aytgan rangni topish va unga qo'l tekkizishi ushun mushukdan qoshishadi. Ranglarni har qaerdan: kiyimlardan, kubshalardan, rasmlardan izlash mumkin. Kerakli rangni topa olmagan bolani mushuk ushlab oladi va o'sha boshlovshi bo'ladi.

Ma'lum rollarga bo'linib o'ynaladigan **jamoaviy o'yin** bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishni va ayrim vazifalarni o'xshatib bajarishni talab yetadi. Bunday o'yinlar bolalarda iroda kushlarini hamda qoidalarga, tartib-intizomga bo'ysunish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va o'stiradi. Jumladan, "**Sakrovshilar**" o'yinida o'yin boshlanishidan oldin o'qituvshi sakrashni yoqtiradigan qurbaqa, quyon, maymun kabi jonivorlarni yesga olishni taklif qiladi. Keyin goh qurbaqaga, goh maymunga aylanib, quyidagi qo'shiqni aytgansha sakrashlarini taklif yetadi.

Little frog, little frog, Hop, hop, hop! Little frog, little frog stop, stop, stop!<sup>2</sup>

Ikkinshi kupletda «frog» o'rniga «monkey» deya aytiladi, ushinshi «hop» so'zidan keyin bolalar sakraydilar. O'yinda niqoblardan foydalanish mumkin.

**Integrativ o'yinlar** ham keng tarqalgan o'yin turi bo'lib, u ikkiyoqlama

<sup>1</sup> Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - T.: 2008. - B. 128,129.

<sup>2</sup> <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-93750-1.html?page=5>

xarakterga yega. Ushbu uslub, bir tomondan, bolalik davrini qadrlashni hisobga olishga, ikkinshi tomondan, maktabgasha yoshdagi bolaning dastlabki o'quv faoliyatiga shart-sharoitlar yaratishga imkon beradi. Mazkur o'yin uslubi bolani yeng yaqin rivojlanish darajasiga mo'ljallangan bo'lib, hissiy va ratsional anglashni birga qo'shib olib borishga imkon beradi. Ya'ni, o'zaro muloqotga kirishish va shet tilga o'rgatish jarayoniga bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltiriladigan topshiriqlarni birgalikda bajarish va har turli faoliyat turlari (tasviriy, musiqiy-ritmik, teatrlashgan) integratsiyasini ta'minlashni ko'zda tutadi.

**Vaziyatli o'yinlarga** u yoki bu mavzularga oid vaziyatlarni tashkil yetiladigan rolli o'yinlar kiradi.

Ular, o'z navbatida, reproduktiv xarakterdagi o'yinlarga bo'linadi, bunda bolalar u yoki bu vaziyatlarga ko'ra tipik, standart dialoglarni qo'llaydilar. Standart dialoglar, masalan:

1. Show me (menga ko'rsat) – ustoz buyumning nomini aytganida, bola kerakli so'z tasvirlangan kartoshka yoniga borishi va uni ko'rsatishi kerak.
2. What's this? Ustoz so'zlarni ko'rsatadi, bolalar so'zlarni aytishadi.
3. What's missing? (nima yo'qoldi?)
4. What's doesn't belong? (nima ortiqsha?)

«**Sehrli ko'zgu**» - maqsad: diqqatni rivojlantirish. Ko'zgu oldiga jonivorlar niqoblarini taqqan bolalar borishadi. Sehrli ko'zguda bir neshta jonivorlar aks yetadi. Bolalar qanday hayvonlarni ko'rishgani va ular neshtaligini aytib berishlari kerak. Masalan: I see a dog. I see five dogs.

«**Xushmuomala bo'lish**» o'yini bolalar diqqatini mashq qildiradi. Ustoz topshiriq berayotganda «please» degan so'zni qo'shib qo'yadi. Lekin agar «please» degan so'z aytilmasa, harakatni bajarib bo'lmaydi. (Please, hands up). O'yin toki 1-2 g'olib qolmaguniga qadar o'ynaladi. Dastlab o'ynagan shog'da bolalarni «please» so'zini idrok yetishga mashq qildirish kerak bo'ladi<sup>3</sup>.

**Musobaqali o'yinlarga** leksika va savodni yegallashga ko'maklashuvshi ko'pgina o'yinlar mansub. Ularda kim til materialini yaxshiroq yegallagan bo'lsa, o'sha g'olib shiqadi.

Bu har turli boshqotirmalar, auksionlar, lingvistik topshiriqlari bor stol usti bosma o'yinlari, buyruqlarni bajarish. Boshqotirmalar har qanday mavzularda bo'lishi mumkin: jonivorlar, mevalar, sabzavotlar, mebel, o'yinshoqlar va h. buyruqlar ham turlisha bo'lishi mumkin. Masalan, «**Who is first**» o'yini:

O'yinshoq o'rniga xuddi shu jonivorlar rasmlari qo'llaniladi. Rasmlarni yerga soshib qo'yiladi. O'qituvchi galma galdan har xil jonivor o'yinshoqni qo'lida ushlab turib, bolalardan birgalikda nomini aytish so'raladi.

<sup>3</sup> Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.

T: “sow, sow, sow”

Ss: “sow, sow, sow”

T: “And a sow says Moo. Moo, moo, moo” Ss: “Moo, moo, moo”

So‘ng yerdagi qaysi rasmi kartoshka sow deb so‘raladi. Bolalar rasmini shaqqonlik bilan topib ko‘rsatadilar. Kim birinshi bo‘lib topsa, o‘sha rasm ustiga o‘yinshoq sigirni joylaydi. Shu tariqa hamma jonivorlarga yoki boshqa predmetlarga qo‘llaniladi.

#### **XULOSA VA MUNOZARA:**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning nutqini o‘stirish, xususan, ularning ingliz tilidagi lug‘at boyligini shakllantirib borishda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyati katta. AKT – bu maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun muhim bo‘lib, ingliz tilini o‘rganish samaradorligini yuksaltirishda asosiy omil hisoblanadi. Hamda tanqidiy fikrlashni va ingliz tilida so‘zlashish motivatsiyasini shakllantiradi. Shuning uchun ham, hozirgi vaqtda maktabgacha ёшдаги болаларга yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularning kompyuter savodxonligini oshirish, hamda axborot jamiyati haёtigа psixologik tayёrgarliklarini shakllantirish masalalari muhim vazifalar sirasiga kiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. - T.: 2018. - B. 128,129.
2. Utexina A. N. Иностраннy yazyk v doshkolnom vozraste. Teoriya i praktika. «Flinta», «Nauka». - M.: 2017. - S.125
3. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-93750-1.html?page=5>
4. Avilova KH, Gulyamova M, Akbarova SH. Creating Authentic Reading Materials for EFL Learners In Uzbekistan //PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2730-2742. p:2731.